

MANBALARDA TUG'LUQ TEMUR SHAXSI VA FAOLIYATINING AKS ETISHI

Ulashova Sevinch, Alfraganus universiteti dotsenti, (PhD)

ОТРАЖЕНИЕ ЛИЧНОСТИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУГЛУКА ТИМУРА В ИСТОЧНИКАХ

*Улашова Севинч, доцент университета Альфраганус,
доктор философии по историческим наукам, (PhD)*


REFLECTION OF THE PERSONALITY AND ACTIVITIES OF TEGULQ TEMUR IN SOURCES

*Ulashova Sevinch, Associate Professor, (PhD), Alfraganus
University*



[https://orcid.org/
0009-0003-3681-7266](https://orcid.org/0009-0003-3681-7266)

e-mail:
sevinch.ulashova@bk.ru



Annotatsiya: Ushbu maqola tarixiy manbalarda Tug'luq Temur shaxsi va faoliyatining aks etishini o'rganadi. Tug'luq Temur Mo'g'uliston xoni sifatida (1347-1363) tasvirlanib, bir muddat Chig'atoy ulusini birlashtirgan va ommaviy islomlashtirishni boshlab bergan mo'g'ul xoni sifatida ko'rsatiladi. Uning shaxsiyati manbalarda dastlab qo'pol va qattiqo'l, ammo yangi g'oyalarga ochiq va boshqa dinlarga bag'rikeng deb ta'riflanadi.

Kalit so'zlar: Tug'luq Temur, Emilxoja, Chig'atoy ulusi, islom dini, Mo'g'uliston, sharqiy ulus, Xizrxoja.

Abstract: This article studies the reflection of the personality and activities of Tughluq Timur in historical sources. Tughluq Timur is described as the Khan of Mongolia (1347-1363), who for a time united the Chigatai ulus and initiated mass Islamization. His personality is initially described in the sources as rude and harsh, but open to new ideas and tolerant of other religions.

Keywords: Tughluq Timur, Emilkhodja, Chigatay ulus, Islamic religion, Mongolia, eastern ulus, Khizrkhodja.

Аннотация: В данной статье рассматривается отражение личности и деятельности Туглука Тимура в исторических источниках. Туглук Тимур описывается как хан Монголии (1347–1363), на время объединивший Чигатайский улус и инициировавший массовую исламизацию. Его личность изначально описывается в источниках как грубый и суровый, но открытый новым идеям и терпимый к другим религиям.

Ключевые слова: Туглук Тимур, Эмилходжа, Чигатайский улус, исламская религия, Монголия, Восточный улус, Хизрходжа.

Kirish (Введение / Introduction). Chig'atoy ulusining yigirma sakkizinchi hukmdori Tug'luq Temur (1360-1363 (1347-1363) bo'lib, uning shajarasi Temuriylar davri manbalariga ko'ra, Duvaga taqaladi. Tug'luq Temur ibn Emilxo'ja ibn Duva ibn Baroq ibn Yesun Duva ibn Mutegin ibn Chig'atoy deb ko'rsatilgan shajara Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan ham ta'kidlangan [11:b.306]. Tug'luq Temurning Chig'atoy ulusi hokimiyatiga kelishi bilan bog'liq ma'lumotlar manbalarda aniq ko'rsatilmaydi. Ammo, ko'plab tadqiqotlarda u 1347-yilda Ili

vodiysidagi to'xtovsiz davom etib kelayotgan toj-u taxt kurashlarida g'alaba qozonib, hokimiyatga kelgani aytiladi [2:b.257]. Ma'lumki, Ili vodiysida Chig'atoy ulusida Xalil Allohning hokimiyati hijriy 745/1345-1346-yilda yakunlangan. Negaki, uning nomi bilan bog'liq tangalarning oxirgisida hijriy 745-yilga oid [8:b.310]. Chig'atoy ulusi tangalari orasida Tug'luq Temurning Movarounnahrni egallaguniga qadar vaqtdagi tangalari uchramaydi. A.K.Markovning yozishicha, Tug'luq Temur tangasi deb yuritiluvchi tanga aslida anonim bo'lib, 761/1359-

1360-yilga tegishli [3:b.563]. P.N.Petrovning yozishicha, tanga Yettisuv yoki Sharqiy Turkistonda zarb qilingan va Duvaning tamg'asi keltirilgan [8:b.316].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Литература и методология / Materials and methods). Maqolada XIV-XVI asrlarning birinchi yarmiga oid sharq manbalardagi Tug'luq Temur faoliyatiga aloqador ma'lumotlar xolislik tamoyili asosida tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada tarixiy taqqoslash, xronologik, retrospektiv, tanqidiy tahlil qilish metodlari yordamida xulosalar chiqarildi.

Muhokama (Обсуждение / Discussion). Tug'luq Temurning shajarasi manbalarda bahsli bo'lib, jumladan, Mirzo Haydarning "*Tarixi Rashidiy*" asarida u Duvaning o'g'li Eson Bug'oning o'g'li ekani aytiladi va tug'ilgan sanasi 730/1329-1330-yilda ekani qayd etiladi. Manbaga ko'ra, u 18 yoshda xon bo'lgan va 34 yoshida vafot etgan [4:b.58-59,72]. Ammo, bu sana uning Eson Bug'oning o'g'li ekani haqidagi qaydlarga to'g'ri kelmaydi. Negaki, Eson Bug'o 1309-yilda boshqaruvga kelib, 1318-yilda vafot etgan [11:b.300]. Agar, Tug'luq Temur Eson Bug'oning o'g'li bo'lsa, u eng kech 1318-1319-yillarda tug'ilgan bo'lishi kerak edi. Bizningcha, ayrim manbalarda keltirilganidek, Tug'luq Temur bu davr siyosiy jarayonlarida ishtirok etmagan Duvaning boshqa bir o'g'li Emilxojaning o'g'li bo'lgan [11:b.306]. "*Muizz al-ansob*"da ham Duvaning ko'p sonli o'g'illari qatorida Emilxoja ham eslatilib, u Tug'luq Temurning otasi ekani aytilgan [5:b.51].

"*Tarixi Rashidiy*"da Tug'luq Temurning onasi Mengli Xotun ekani aytilib, xonzoda otasi yonida emas, otasining katta xotini Sotilmish Xotunning tadbiriga ko'ra, Shirovul *duxto'y* xonadonida tug'ilib, voyaga yetadi [4:b.59-63]. Negaki, Sotilmish Xotun kundoshi Mengli Xotunning homiladorligini bilgach, eri safardaligidan foydalanib, uni Shirovul *duxto'y*ga xotinlikka berib yuboradi. 746/1345-1346-yilda Chig'atoy ulusining sharqiy qismi xoni Xalil Allohdan so'ng, Ili hududida boshlangan to's-to'polonlar natijasida mo'g'ul xonzodalari bir-birini qira boshlaydi. Natijada, taxtga munosib nomzod qolmaydi. Ayni shu vaqtda Mo'g'ulistonda yetakchi mavqega ega bo'lgan *dug'lot* amiri Buloji Shirovul *duxto'y* xonadonida

voyaga yetgan Tug'luq Temurni olib kelishni buyuradi. Tug'luq Temur bu vaqtda o'n olti yoshda bo'lib, ikki yildan so'ng, sharqiy Chig'atoy ulusining hokimiyatini egallaydi [4:b.72]. Shu tariqa, Tug'luq Temur manbalarda Mo'g'uliston deb yuritilgan hudud – Chig'atoy ulusining sharqiy qismida hukmronlikni qo'lga oladi. Bu hududda hukmronlik qilgan mo'g'ul xonzodalarining barchasi uning avlodlaridan bo'lgani uchun zamonaviy tadqiqotlarda bu alohida sulola sifatida talqin qilinadi. Ammo, bizningcha, ular ham Chig'atoy xonadonining bir tarmog'i edi.

Natijalar (Результаты / Results). Tug'luq Temur sharqiy ulusni egallagan paytda Chig'atoy ulusining g'arbiy qismida Qozon Sulton bilan amir Qazag'on o'rtasida kurash ketayotgan edi. Tug'luq Temur amir Qazag'on Movarounnahrni egallab "qo'g'irchoq xon"larni taxtga chiqarayotganini chetdan kuzatadi. O'n yildan ortiq davom etgan amirlar hokimiyati davrida Tug'luq Temur qo'shini ham son jihatdan yuksaladi. U amir Abdulloh hokimiyati davridagi tarixiy jarayonlar va turk amirlarining "hokimi mutloq"lik faoliyatini kuzatib turib Movarounnahrda o'z hokimiyatini o'rnatish uchun vaziyat yetilganini tushunadi va 760/1359-1360 yilda katta qo'shin bilan Movarounnahrda keladi [7:b.29-30].

Movarounnahrda amir Bayon Sulduz amirlik taxtini egallagach, sharobxo'rlik va maishatga berilib, davlat boshqaruvi bilan shug'ullanmay qo'yadi [6:b.51-55]. Natijada, har bir yirik amir o'zini o'z viloyatida "hokimi mutloq" sanay boshlaydi [7:b.30-31;10:b.20]. Bu vaqtda amir Qazag'onning omon qolgan nabirasi amir Husayn bobosiga sodiq kuchlar bilan va xonadoniga qaram *qoraunos*larni birlashtirib, hokimiyatni qaytarib olish uchun kurash boshlaydi. O'zini "hokimi mutloq" sanagan amirlar Tug'luq Temur qo'shini ko'pligidan xabar topgach, har tarafga qocha boshlaydi. Jumladan, amir Hoji Barlos Xuroson tarafga qochadi. Unga hamrohlik qilayotgan jiyani Temurbek Hoji Barlosdan ortga qaytishga ruxsat so'raydi va Tug'luq Temur dargohiga kelib, uning xizmatiga qabul qilinadi. Xon Temurbekka ota-bobolari boshqarib kelayotgan Keshni suyrug'ol qilib beradi [10:b.20-22].

Tug'luq Temurning qo'shini, sarkardalari nomi, Movarounnahr bo'ylab harakatlanishi

haqida “Zafarnoma”da mufasssal soʻz yuritiladi. Manbalarga koʻra, ayrim turk amirlari birlashish oʻrniga Tugʻluq Temurga qoʻshilib, unga Movarounnahrni zabt etishda hamrohlik qiladi. Shu tariqa, Tugʻluq Temur Movarounnahrni deyarli qarshiliklarsiz qoʻlga oladi. U Movarounnahrda uzoq qolmay, boshqaruvda oʻzining ishonchli odamlarini qoldirib, Moʻgʻulistonga qaytadi [6:b.53-55]. Movarounnahrda boshlangan qayta kurash sababli Tugʻluq Temur yana Movarounnahrda keladi va oʻziga qarshi boʻlgan barcha kuchlarni yoʻq qilishga kirishadi. Koʻplab isyonchi amirlar qoʻlga olinib, yasoqqa yetkaziladi [7:b.31-32;10:b.24-25]. Movarounnahr asosiy raqiblardan tozalangach, Tugʻluq Temur oʻgʻli Ilyosxoʻjani Movarounnahrda qoldirib, yana Moʻgʻulistonga qaytadi. Amir Bekichakni Ilyosxoʻjaga noib qilib tayinlab, mamlakat boshqaruvini ularning qoʻlida qoldiradi [4:b.75-76].

Tugʻluq Temur ortga qaytgach, birozdan soʻng Moʻgʻulistonda vafot etadi. Manbalarda uning vafoti 764/1362-1363-yil qishda sodir boʻlgani aytiladi [4:b.71]. Tugʻluq Temur Ili vodiysida Olmaliq shahri yaqinida dafn etiladi [9:b.323]. Xonning mozori ustida maqbara ham qurilgan va bu inshoot hozirga qadar saqlanib kelmoqda. Tugʻluq Temur Chigʻatoy ulusining musulmon xoni edi. U dastlab ajdodlarining diniy eʼtiqodida boʻlgan. Tugʻluq Temur mavlono Arshadiddin taʼsirida islom dinini qabul qiladi va sunnat marosimini oʻtkazadi. Mirzo Haydarning taʼkidlashicha, u bilan birga Moʻgʻulistonda 160 ming kishi islom dinini qabul qilgan [4:b.64;1:b.98]. Xon oʻziga tobe xalqlarni birlashtirish uchun ham islom dinidan foydalanadi. Buni ayniqsa Movarounnahrda olib borgan siyosatidan ham koʻrish mumkin.

Xulosa (Заключение / Conclusion). Xullas, tarixiy manbalarda Tugʻluq Temur Chigʻatoy ulusining soʻnggi taʼsirli xonlaridan biri edi. U moʻgʻul identifikatsiyasini saqlagan, ammo islomni qabul qilib, ommaviy islomlashtirishni boshlagan transformatsion rahbar sifatida koʻrinadi. Tugʻluq Temurning faoliyati Markaziy Osiyo tarixida muhim iz qoldirgan boʻlib, uning islomlashtirish siyosati va harbiy yutuqlari sharqiy ulus shakllanishiga zamin yaratgan.

Adabiyotlar roʻyxati (Использованная литература / References):

1. Абулғозий. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 189 б.
2. Акимушкин О.Ф. Хронология правителей Восточной части Чагатайского улуса (линия Туглук-Тимур-хана) //Средневековый Иран: Культура, история, филология. – СПб, 2004. – С. 257.
3. Марков А.К. Инвентарный каталог Мусульманских монет Эрмитажа. – СПб., 1896. – 881 с.
4. Мирза Мухаммад Хайдар Аёзий. Тарихи Рашидий / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи О.Х. Жалилов. – Тошкент: Oʻzbekiston, 2011. – 704 б.
5. Муъизз ал-ансāб (прославляющее генеалогии) // История Казахстана в персидских источниках. Т.III. Введение, перевод с персидского языка, примечания, подготовка факсимиле к изданию Ш.Х.Вохидова. – Алматы, 2006. – 672 с.
6. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний /Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Ғ.Каримий. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 264 б.
7. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи Ю.Ҳакимжонов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 527 б.
8. Петров П.Н. Хронология правления ханов в Чагатайском государстве в 1271-1368 гг.// Тюркологический сборник 2007-2008. История и культура тюркских народов России и сопредельных стран. – Москва, 2009. – С. 294-319.
9. Улуғбек Мирзо. Тўрт улус тарихи / Форс тилидан Б.Аҳмедов, Н.Норқулов ва М.Ҳасанийлар тарж. – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 352 б.
10. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома / Сўз боши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмад, Ҳ.Бобобеков. – Тошкент: Шарк, 1997. – 382 б.
11. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Муқаддима. 1-қ. / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва илмий изоҳлар муаллифи О.Бўриев. – Тошкент, 2021. – 352 б.